

XAVFSIZ LABORATORIYA ORQALI MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING ERKIN VA MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Namatova Amina Alisher qizi

Jizzax viloyati Do'stlik tumani MTB tasarrufidagi

13- son DMTT uslubchisi

Annotatsiya: *Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Ushbu maqolada xavfsiz laboratoriya orqali maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining erkin va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish xususida so'z yuritildi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim; laboratoriya; mantiqiy fikrlash.*

Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, islohlashgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi. Har bir ota-ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanini chuqur egallashi lozim. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarning to'g'ri yechimini topishga yo'naltiradi.

Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021 yildagi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 406-son qarori qabul qilindi. Prezidentning "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga muvofiq Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriyasi tashkil etildi. Laboratoriya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tuzilmasida faoliyat ko'rsatadi va yuridik shaxs maqomiga ega emas. Laboratoriyani moliyalashtirish xarajatlari Davlat byudjetidan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti uchun ajratilgan xarajatlar doirasida amalga oshiriladi. Qaror loyihasi bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tuzilmasida yuridik shaxs maqomisiz ilk yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, qaror loyihasi bilan Innovatsion laboratoriyaning bir qator funksiyalari belgilab berilmoqda. Jumladan:

- ilk yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish, salomatligini saqlash, sog'lom ovqatlantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish;
- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy, psixologik rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan maslahat xizmatlari ko'rsatish;
- ilk yoshdagi bolalar nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- ilk yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- ilk yoshdagi bolalar badiiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish;
- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish darajasini o'rganish, tahlil qilish, bolalar rivojlanishidagi muammolarni aniqlash;
- bolalar rivojlanishidagi buzilishlarni korreksiya qilish va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- bolalarni erta rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish va monitoringini yuritish;
- pedagog va ota-onalarga bolalarni erta rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bundan tashqari, Innovatsion laboratoriya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish instituti tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Ota-onalar, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglariga, maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi muassasalar (professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar)ga metodik xizmat ko'rsatadi. Bolaning rivojlanishida maktabgacha bo'lgan davri juda muhim o'rin tutadi. Bu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, psixologik salomatligi shakllanadi va aqliy rivojlanish qobiliyatlari takomillashadi. Bolani kelajakda omadli, aqlli hamda iste'dodli bo'lishini istagan ota-ona uning rivojlanishiga aynan shu davrdan boshlab ahamiyat bermog'i lozim. Maktabgacha yosh - bu katta yoshdagi bolaning to'liq aqliy rivojlanishi uchun asos, poydevor yaratilgan davr. Chaqaloqning yangi narsalarni o'rganishga qiziqishi, qiyinchiliklardan qo'rqmasligi, ularni engib o'tishi uchun maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilish kerak. Bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Mantiq va fikrlashni rivojlantirish bolani maktabga muvaffaqiyatli tayyorlash va uning barkamol rivojlanishining ajralmas qismidir. Katta maktabgacha yosh ongning belgi-ramziy funksiyasi paydo bo'lishining boshlanishi bilan belgilanadi. Bu davr umuman aqliy rivojlanish, maktabga tayyorgarlikni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ob'ektlarni, ketma-ketliklarni, to'plamlarni belgilash uchun ramziy belgilardan foydalanish odatiy holdir, bu bolalar maktabga tayyorgarlik jarayonida tanishtiriladi. Bolalar buni faol qabul qilishadi. Aqliy tarbiya deganda ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib

toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha ta'lim yoshida boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur'atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo'riqishlardan asrashni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyeva O. Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent. 2011.
2. Abduazimova L. Bolalar uchun innovatsion laboratoriya mashg'ulotlariga nimalar kiradi? Toshkent. 2021.
3. Abdurahmonov A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi metodlar. Toshkent. 2021.
4. Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish. <https://minikar.ru/uz/schaste/formirovanie-logicheskogo-myshleniya-detei-mladshego-doshkolnogo>.
5. Qilichova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda aqliy faoliyatning o'rni. Toshkent. 2022.